



INTRODUCTION OF THE COLONIAL ADMINISTRATIVE MANAGEMENT SYSTEM IN TURKESTAN

Nigora A. Tukhtabekova

Doctoral student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asian khanates, Russian Empire, Turkestan region, administration control, steppe commission, position.

Received: 22.12.22

Accepted: 24.12.22

Published: 26.12.22

Abstract: The article shows that the conquest of the Central Asian khanates in the 19th century by the Russian Empire is an unchanging process, and the introduction of a military-administrative system based on colonial principles in the conquered territories. Also, explanations are given on the discussion of various projects and the activities of the commission in this process.

TURKISTON O'LKASIDA MUSTAMLAKA MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMINIG JORIY ETILISHI

Nigora A. Tuxtabekova

Doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА ҲАҚИДА

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Rossiya imperiyasi, Turkiston o'lkasi, ma'muriy boshqaruv, Dasht komissiyasi, nizom.

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo davlatlari hududlarning bosib olinishi o'zgarish va uzil-kesil jarayon ekanligi va bo'ysindirilgan hududlarda mustamlakachilikka asoslangan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimini joriy etish jarayoni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mazkur jarayonda muhokama qilingan turli loyihalar va komissiyalar faoliyati asosli tarzda bayon etilgan.

ВНЕДРЕНИЕ КОЛОНИАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

Нигора А. Тухтабекова

докторант

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Российская империя, Туркестанский край, административное управление, Степная комиссия, положение.

Аннотация: В статье показано, что завоевание Центральной Азиатских ханств XIX веке Российской империей представляет собой неизменяемый процесс, и внедрения на завоеванных территориях военно-административной системы, основанной на колониальных принципах. Также даётся разъяснения по обсуждению различных проектов и деятельности комиссии в этом процессе.

KIRISH

Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidagi istilochilik harakatlari va zamonaviy qurollangan rus qo'shinlarining shuhrati Markaziy Osiyo davlatlari hukmdorlarini chuqur tashvishga solib qo'ydi. Bu holatdan ustamonlik bilan foydalangan imperiya hukumati hududlarning bosib olinishi o'zgarmas va uzil-kesil jarayon ekanligini isbotlash maqsadida bo'ysindirilgan hududlarda mustamlakachilikka asoslangan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimini joriy etishga kirishdi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'ziga xos va aholisining etnik tarkibi turlicha bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasida boshqaruv tizimini metropoliya manfaatlariga moslab tashkil etish oson emasdi.

ASOSIY QISM

Rossiya imperiyasi hukmron doiralari dastlab yangi bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil etishda oldindan puxta va aniq o'ylab chiqilgan reja hamda loyihaga ega emas edi [1]. Qisqa muddatda osonlik bilan qo'lga kiritilgan yutuqlardan ruhlangan bosqinchilar dastlabki davrlarda bosib olingan hududlarni qanday boshqarishni murakkabliklarga uchradilar. Natijada, istilodan keyingi dastlabki yillarda mazkur muammo bilan Orenburg general-gubernatorligi shug'ullana boshladi. 1865 yil 2 martda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etildi va uni boshqarish bo'yicha "Dasht komissiyasi" tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asos qilib olindi. Ushbu loyihani ishlab chiqishda harbiy vazir D.A.Milyutinining "Dasht komissiyasi" a'zolari bilan uchrashuvlarda ilgari surgan mulohazalari e'tiborga olindi. Loyihaning asosiy mazmunida hududda harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimini joriy etishdan iborat edi. 1866 yili aynan D.A.Milyutinining tashabbusi bilan Turkistondagi vaziyatni o'rganib

chiqish maqsadida maxsus komissiya yuborildi. Komissiya a'zolari umumiy holat bilan tanishib chiqib, viloyatning Orenburg general-gubernatorligi tarkibidan ajralib chiqishi maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi xulosaga keladilar [2].

1867 yil 11 iyunda "Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarini boshqarish to'g'risida muvaqqat nizom" e'lon qilindi. K.P. Fon Kaufman Turkistonning birinchi general-gubernatori etib tayinlanib, imperator tomonidan unga o'ta muhim qarorlar qabul qilish bo'yicha keng vakolatlar taqdim etildi[3]. Podsho farmoyishiga ko'ra Turkiston general-gubernatori barcha siyosiy masalalar, chegara va savdo ishlari bilan shug'ullanish, qo'shni davlatlar bilan muzokaralar olib borish hamda sulh shartnomalarini tuzish huquqiga ega bo'ldi. Turkiston general-gubernatori o'z xohish-istagidan kelib chiqib xonliklarga va bo'ysunmagan xalqlarga nisbatan har qanday vositalarni qo'llashi mumkin edi. Shuningdek, unga sarf-xarajatlar hisobini yurgizish va mablag'larni erkin tasarruf etish, qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish, soliqqa tortish, byudjet daromadlarini nazorat qilish, muzokaralarni tasdiqlash va mahalliy xalq vakillaridan o'limga hukm qilinganlarni avf etish vakolatlari berildi. Turkiston o'lkasi xalqlari Rossiya imperatorini "Oq podsho", K.P. fon Kaufmanni esa "Yarim podsho" deb atashgan[4].

Mazkur boshqaruv tizimi shunday asosda qurilganki, mustamlakachi mutasaddilar rasman xonlar va yuqori tabaqa vakillarini o'zlaridan uzoqlashtirmaganlari holda, rus ma'muriyati timsolida mahalliy aholini avvalgi hukmdorlarning o'zboshimchaliklari va jabr-zulmidan himoya qiluvchilar sifatida namoyon bo'lishlari lozim edi. K.P. fon Kaufmanning 1881 yili podsho nomiga yo'llangan hisoboti bunga misol bo'la oladi. "Bu mamlakat hukmdorlari, – deyiladi unda, – bizga nisbatan dushmanlik holatida bo'lib, qulay vaziyatni kutib turishibdi. Bunday murakkab sharoitda mustamlaka hukmron doiralari mahalliy xalqning kayfiyatini, ayniqsa, hukmdorlarning manfaatlarini inobatga olgan holda ish tutishlari kerak"[5].

Turkiston general-gubernatorligining faoliyati xalqning nazdida o'zlarini tinchlik tarafdori qilib ko'rsatish hamda asosiy maqsadlari eskirgan siyosiy-ijtimoiy boshqaruv tizimini yangi fuqorolik boshqaruvi usullari bilan almashtirishdan iborat ekanligiga ularni ishontirish va ko'niktirishdan iborat bo'ldi. Boshqacha aytganda, podsho ma'murlari mustamlaka o'lkalarda boshqaruv tizimini shunday tashkil etishdiki, bu amalda joylardagi yuqori tabaqa vakillarini o'zlaridan uzoqlashtirmaslikka asoslandi[6].

Rejaga muvofiq Turkiston o'lkasida ma'muriy boshqaruv tartiblarini o'rnatish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni imkon qadar chuqur o'ylangan holda, asta-sekinlik va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi belgilandi. Rasmiy ma'lumotlarda bu masaladagi keskin o'zgarishlar foydadan ko'ra zararli oqibatlarga olib kelishi, mahalliy aholining

qarshiligini keltirib chiqarishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi. Shunga o'xshash qarashlar xorijiy mualliflarning asarida ham ko'zga tashlanadi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari Turkiston o'lkasida boshqaruvni tashkil etish masalasiga bunday yondashuvi, birinchidan, hukumatga tashqi siyosat borasida barqarorlik va tartib o'rnatish imkonini berdi. Ikkinchidan, metropoliyaning o'lka aholisidan undiriladigan soliqlardan mo'may daromad olishini ta'minladi. Uchinchidan, asta-sekinlik bilan mahalliy aholini Rossiya imperiyasi o'rnatgan tartiblarni tan olishiga majbur etdi.

Albatta, ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida xalqaro muammolarga ham alohida e'tibor qaratildi. Chunki Turkistonda o'rnatiladigan mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasining mavqeini faqatgina Markaziy Osiyoda emas, balki Yevropa va Sharq xalqlari nazdida ham oshirishga xizmat qilishi lozim edi.

Markaziy Osiyodagi ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar loyihasini ishlab chiqish jarayoniga Rossiya hukumati boshqa mustamlaka o'lkalar, xususan, Qrim va ayniqsa, Kavkazga nisbatan yuritgan siyosati tajribasidan kelib chiqib yondashdi.

Rossiya imperiyasi o'lkada olib borgan ma'muriy, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik sohasidagi siyosati davomida Turkiston o'lkasini ko'proq Rossiyaning qolgan qismi bilan qo'shib yuborish, bir butunga aylantirish yo'lidan bordi[7]. Bu o'rinda mahalliy millat vakillari manfaatlari inobatga olinmadi. Turkistonni boshqarish tizimi imperiya hukumati tomonidan xalqaro va ichki vaziyatni nazarda tutgan holda ishlab chiqilgan edi.

XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan to'laligicha Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirildi. Mahalliy aholi mustamlaka ma'muriyati tomonidan shafqatsizlarcha ezilib, o'lka xalqlarining barcha insoniy huquq va erkinliklari poymol etildi.

Bu davrga kelib Turkiston general-gubernatorligi tarkibi beshta viloyatdan, ya'ni Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona va Kaspiyorti viloyatlaridan iborat edi. Buyuk Britaniya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Frantsiya mustamlakalari 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilgan bo'lsa, Rossiyaning birgina Sibirdagi mustamlakasi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Rossiyaning Turkistondagi mulklari Germaniya, Frantsiya va Buyuk Britaniya hududlarining umumiy maydoniga teng edi.

O'rganilayotgan davrda Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi jami 1.738.918 kvadrat kilometr hududda 5.280.983 kishi istiqomat qilgan. Aholining asosiy qatlamini o'zbeklar (39,2 %), qozoqlar (19,5 %), qirg'izlar (13,5 %), ruslar (9,1 %), tojiklar (7,4 %), turkmanlar (4,9 %), qoraqalpoqlar (1,3 %) va 2,8 % ini boshqa millat vakillari tashkil qilgan.

Turkiston iqtisodiy jihatdan agrar o'lkasi bo'lib, aholining 86,17 % qishloqlarda, 13,87 % shaharlarda yashagan[8].

Jumladan, Turkiston o'lkasi ham Rossiya imperiyasining sof mustamlaka namunasiga aylandi. Rossiya imperiyasi hukumati rus bo'lmagan xalqlarni ezish va ekspulatsiya qilishda yetakchi mavqega ega bo'lib, ularni huquqsizlik girdobiga ulotirdi hamda turli xo'rliliklar va kamsitishlarga muvotir qildi .

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo qilinishi va o'lkani boshqarish tartiblarining ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi natijasida mahalliy aholi to'raligicha metropoliyaga qaramlikka tushib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – первой четверти XX вв. – Ташкент: Университет, 1999. – С. 20.
2. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Ko'rsatilgan asar. – С. 25.
3. Терентьев М. История завоевание Средней Азии. – Санкт-Петербург., 1906. – Ч. I. – С. 384; Қаранг. Ерошкин Н.П. История государственных учреждений дореволюционной России. – Москва: Высшая школа, 1968. – С. 255; Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия таъовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 252-253.
4. O'zMA 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 73-ish, 21-varaq.
5. Кауфман К. П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К. П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – марта 1881 гг. – СПб., – С. 5; Қаранг: Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае // Русский вестник. М.:1890. – № 1; Царская колонизация в Казахстане (По материалам русской периодической печати XIX века). – Алматы: Рауан, 1995. – С. 8.
6. Тухтабеков, К. (2021). Некоторые размышления о роли Юнус-хана в общественнополитической жизни Мавераннахра. *Общество и инновации*, 2(6/S), 235-242.
7. Киняпина Н.С., Блиев М. М., Дегоев В.В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (Вторая половина XVIII-80-е годы XIX в.) – Москва: МГУ, 1984. – С. 288.
8. O'zMA 1-jamg'arma, 34-ro'uxat, 8-ish, 263-265-varaqlar
9. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Ko'rsatilgan asar. – В.58.